

## ULUG'BEK HAMDAMNING "OTA" ROMANIDA OILAVIY QADRIYAT VA MAS'ULIYAT MUAMMOSI

*Esanova Sabrina Zavqiddin qizi*

*Buxoro davlat pedagogika instituti*

*O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi*

*2-bosqich magistranti*

*Teshayeva Mexrangiz Jamshid qizi*

*Buxoro davlat pedagogika instituti*

*O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi*

*2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining yirik vakili Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanida oilaviy qadriyat va mas'uliyat muammosi kabi tushunchalarining badiiy talqini tadqiq etiladi.

**Tayanch so'zlar:** Ulug'bek Hamdam, "Ota" romani, insoniylik, ma'naviy mas'uliyat, badiiy psixologizm, ota va farzand, vijdon, ruhiy evrilish, zamonaviy, qahramon talqini.

**Annotatsiya:** В статье исследуется художественная интерпретация понятий человечности и ответственности в романе «Отец» Улугбека Хамдама, крупного представителя современной узбекской литературы.

**Ключевые слова:** Улугбек Хамдам, роман «Отец», человечность, духовная ответственность, художественный психологизм, отец и сын, совесть, духовное преображение, современность, интерпретация героя..

**Annotation:** This article examines the artistic interpretation of the concepts of humanity and responsibility in the novel "Father" by Ulugbek Hamdam, a major representative of modern Uzbek literature.

**Keywords:** Ulugbek Hamdam, the novel "Father", humanity, moral responsibility, artistic psychology, father and child, conscience, spiritual transformation, modern, interpretation of the hero.

### KIRISH

“O'tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasida o'zbek onalari haqiqiy timsol darajasiga ko'tarilgan bo'lsa, Ulug'bek Hamdamning “Ota” romanida o'zbek otalarining chinakam umumlashma timsoli aks etgan. Darhaqiqat, bugungacha milliy adabiyotimizdagi biror asarda ota obrazi alohida namoyon bo'lmagan edi. Nihoyat, mazkur “Ota” romanida o'quvchi haqiqiy o'zbek otasi bilan yaqindan tanishadi. Ko'plab kitobxonlar kutgan kitob qo'lingizda!” degan izohni kitob muqovasida o'qirman duch keladi.

Asarning o‘ziga xosligi shundaki, u ota siymosini shunchaki oila boshlig‘i yoki xo‘jalik tayanchi sifatida emas, balki otalik konsepti -ijtimoiy mas‘uliyat, ma‘naviy meros va nasllar o‘rtasidagi ruhiy bog‘liqlikning markazi sifatida talqin etadi. Tadqiqotchilar asardagi ota obrazini milliy adabiyotimizdagi ilk bor alohida va tizimli ravishda badiiy tadqiq etilgan 'o‘zbek otasining chinakam timsoli' sifatida baholaydilar. Bu esa romanning nafaqat badiiy, balki o‘zbek milliy mentalitetini o‘rganishdagi ontologik ahamiyatini ham belgilab beradi.

Ulug‘bek Hamdamning nasriy asarlari o‘zbek jamiyatining ruhiy holatini, insoniylik va vijdon mavzularini falsafiy-psixologik uslubda ochib beradi. “Muvozanat” romani mustaqillik davri o‘zbek adabiyotidagi eng dolzarb asarlardan biri bo‘lib, inson va jamiyat o‘rtasidagi “muvozanat” tushunchasini yangicha badiiy talqin etadi. “Ota” romanida esa otalik konsepti, ijtimoiy mas‘uliyat va ma‘naviyat masalalari markazda turadi. Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romani zamonaviy o‘zbek adabiyotida inson ruhiyati, oilaviy munosabatlar va ma‘naviy qadriyatlarni teran badiiy talqin etgan asarlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Asarda “ota” timsoli nafaqat oila boshlig‘i sifatida, balki jamiyatdagi mas‘uliyat, fidoyilik va ma‘naviy tayanch ramzi sifatida gavdalanadi. Shu jihatdan roman oilaviy qadriyatlarning mohiyatini ochib berish bilan birga, inson zimmasidagi burch va javobgarlik masalalarini ham chuqur yoritadi.

Bugungi globallashuv jarayonida an‘anaviy oilaviy qadriyatlarning saqlanishi, avlodlar o‘rtasidagi munosabatlarning mustahkamligi dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Mazkur roman ana shu jarayon fonida ota va farzand, shuningdek, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni badiiy ifoda etadi. Asarda ota obrazining ichki kechinmalari, uning oilaga nisbatan mas‘uliyati va hayot sinovlari qarshisidagi sabr-toqati orqali muallif insoniylikning muhim mezonlarini ochib beradi.

Oradan oylar o‘tib, Sevinchning yuzidagi dokani olishdi...

Qizini ko‘rishi hamono Yodg‘du o‘krab yig‘lab yuborgancha o‘zini Po‘latning bag‘riga tashladi. Po‘latning o‘zi ham qo‘rquv, hayajon, umid qorishmasidan iborat allaqanday yangi hissiyot changalida qolib, inqilloq bo‘lib dovdurab turardi. Ammo shu tobda u ham ojizlik qilsa, Yoddu bilan Sevinch kimga suyanadi? Sevinch yaxshiyam yosh qizaloq, nima gapligini uncha tushunmay bir vrachga, bir otasiga, bir silkinib-silkinib yig‘layotgan onasiga hayron bo‘lib boqardi.

- Jonim qizim manim! - Po‘lat Yodduni “o‘zingni tut!” degandek yelkasidan ushlab bir silkitdi-da, borib qizini vrachning qo‘lidan olib dast ko‘tardi.

-Og‘rimadimi?

“Yo‘q” degandek, boshini qimirlatdi Sevinch.

- Ayam nega yig‘layapti, ota?

- O‘zim... qizim... o‘zim, seni ko‘rib, endi uyga ketarkanmiz deb, quvonib yig‘layapman, — deya Yoddu ham hushini to‘plab kelib erining bag‘ridagi qizini

quchdi. Po‘lat Sevinchni Yodduga topshirdi-da, tez borib devorga kokilgan kichik ko‘zguni olib, qara...<sup>1</sup> Matnda Po‘latning ichki dunyosi va tashqi harakati o‘rtasidagi nomutanosiblik (ziddiyat) yaqqol ko‘rinadi. Muallif uni “inqilloq bo‘lib dovdirab turardi” deb tasvirlaydi. Bu- qizining kelajagidan, uning yuzidagi izlardan qo‘rqayotgan otaning chinakam ruhiy iztirobi. Shunga qaramay, u oilaning ustuni ekanini angelaydi: “Ammo shu tobda u ham ojizlik qilsa, Yoddu bilan Sevinch kimga suyanadi?”. Bu jumla romandagi “Ota” konseptining falsafiy formulasidir. Ota - har qanday og‘riqni ichiga yutib, oilasiga tayanch bo‘ladigan kuch.

Po‘lat obrazi orqali ota - nafaqat oilani boquvchi, balki farzandining ruhiy dunyosini himoya qiluvchi qalqon sifatida namoyon bo‘ladi. Qizi Sevinchning yuzi yong‘inda kuyib, “badbashara” bo‘lib qolgan. Po‘lat shifokorning umidsiz javobidan so‘ng (“tibbiyot bir joyda qotib qolgani yo‘q... lekin hozircha mushkul”) ruhan ezilsada, qizi oldida o‘zini qo‘lga oladi. Bu joyda otaning ichki fojiasi va tashqi matonati o‘rtasidagi ziddiyat ko‘rinadi. Muallif “Po‘latning tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi” iborasi orqali uning umidsizligini, lekin keyingi harakatlari bilan qizi uchun kurashishini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, Sevinchning o‘rtoqlari bilan uchrashuvi juda muhim ijtimoiy masalani ko‘taradi: nogironlik yoki jismoniy nuqsoni bor shaxslarni jamiyat tomonidan qabul qilinishi. Bolalar Sevinchning kuygan yuzidan qo‘rqib, undan qochishadi. Bu - jamiyatning “boshqacha” odamlardan begonalashishining ramziy ifodasidir. U bolalarga dars beradi. Ularga do‘stlik faqat yaxshi kunlarda emas, balki “Yomon kunda ham bir-birini yonida bo‘lish” ekanini tushuntiradi. Po‘latning bu nutqi asarning pedagogik va axloqiy yukini oshiradi.

Asarda Po‘lat barcha bolalarni muzqaymoq yeyishga taklif qiladi. Bu shunchaki mehmondorchilik emas, balki qizini bolalar davrasiga qaytarish uchun qilingan psixologik ko‘prikdir. Muzqaymoq - bolalik quvonchi, shirinlik va birlashish ramzi.

“Tillar emas, nigohlar gaplashar bo‘ldi”: Muallif tildan ko‘ra nigohlarning kuchliroq ekanini ta’kidlaydi. Bu orqali qahramonlarning so‘z bilan aytib bo‘lmaydigan ichki og‘riqlari va o‘zaro hamdardligi ochib berilgan. Po‘lat - farzandining jismoniy jarohatidan ko‘ra, uning ruhiy sinishidan ko‘proq qo‘rquvchi zamonaviy o‘zbek otasi timsoli. Muallif “Ota” romani orqali insoniylik, hamdardlik va jamiyatdagi begonalashuv muammolarini o‘rtaga tashlaydi. Ulug‘bek Hamdam bolalar nutqi va psixologiyasi orqali kattalar dunyosining og‘riqli nuqtalarini ko‘rsatib beradi. “Yuzi kuyibdi, deya u bilan o‘ynamaslik o‘rtoqchilik emas. Haqiqiy o‘rtoq yaxshi kunda ham, yomon kunda ham bir-birining yonida bo‘ladi” deya bolalarni yaxshilikka undashi Po‘lat shaxsiyatidagi insoniylikning yuqori o‘rinda ekanligiga dalil bo‘ladi.

Asarning bosh yutug‘i - o‘zbek adabiyotidagi an’anaviy “ota” obrazini yangi pog‘onaga olib chiqqanidir. Po‘lat timsolida ota shunchaki moddiy ta’minotchi emas,

<sup>1</sup> Ulug‘bek Hamdam, “Ota” .Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2024yil.118-bet.

balki farzandining ruhiy dunyosi uchun mas’ul bo’lgan, uning qalb jarohatlarini davolovchi ma’naviy tabib va qalqon sifatida namoyon bo’ladi. Muallif ota siymosini “matonat” tushunchasini egizak holda talqin etadi.

Roman “ichki monologlar”, “ruhiy tahlil” va “ramziy detallar” (masalan, ko’zgu, olov, muzqaymoq) ga boyligi bilan ajralib turadi. Qahramonning ichki kechinmalari, uning shubhalari va e’tiqodi o’rtasidagi kurash kitobxonni qahramon bilan birga yashashga majbur qiladi. Bu esa asarning badiiy ta’sirchanligini ta’minlagan asosiy omildir.

Asarda Ijtimoiy va axloqiy muammolar ko’lami keng. Asarda faqat bir oila fojiasi emas, balki jamiyatning “Boshqacha” (nuqsoni bor yoki jismoniy jarohat olgan) insonlarga bo’lgan munosabati ham qalamga olingan. Po’latning qizi Sevinchni bolalar davrasiga qaytarish yo’lidagi kurashi - insonparvarlik va hamdardlik g’oyalarining oliy ifodasidir. Roman jamiyatni yanada bag’rikengroq bo’lishga, tashqi ko’rinish ortidagi go’zallikni ko’ra bilishga chorlaydi. Ulug’bek Hamdam asarda sodda tildan foydalansada, uning zamiriga teran falsafiy ma’nolar yuklaydi. Ota-bola munosabatlari orqali hayotning mazmuni, taqdir sinovlari va inson irodasining cheksizligi kabi ontologik masalalar tadqiq etiladi.

Xulosa qilib aytganda, Ulug’bek Hamdamning “Ota” romani milliy adabiyotimizda ota siymosining badiiy-falsafiy konsepsiyasini yaratib bergan asar hisoblanadi. Adib Po’lat obrazi orqali chinakam insoniy jasorat qahramonlikda emas, balki yaqinlarining dardi oldida ojiz qolmaslikda, ularning ruhiy butunligi uchun mas’uliyatni bo’yinga olishda ekanini isbotlaydi. Bu asar zamonaviy o’zbek romanchiligida ham janr, ham g’oyaviy jihatdan yangi izlanishlar mahsuli sifatida qimmatlidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ulug’bek Hamdam, “Ota”. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2024yil
2. Ulug’bek Xamdam. Vatan haqida qo’shiq. Maqolalar va davra suhbatlari. T.: Akademnashr. 2014.
3. Hamdam Ulug’bek. “To’rtko’cha”. “Yangi asr avlodi”. 2024.
4. Cholpon. “Kecha va Kunduz”. Roman. “Abadiy barhayot asarlar” turkumi. – T.: “Ilm-ziyo-zakovat”. 2019.
5. Xamdam Ulug’bek. Muvozanat. Toshkent. “Sharq”. 2007.
6. Yo’ldosh Q. Yoniq so’z. T.: Yangi asr avlodi, 2006.